



## **BOLALARNI SPORTI SELEKSIYASINING PEDAGOGIC-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Umirov Shodi Bobomurodovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti katta o'qituvchisi

**Bobomurodova Saida<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institute Seleksiya va  
urug'chilik yo'nalishi 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7293974>

Annotasiya. Maqolada sportdagi saralash jarayoni, jumladan bolalarga sport turini tanlash va iqtidorlarni tanlab olishning pedagogik va psixologik parametrlari haqida fikr yuritilgan Bolalar sporti sohasida xususan seleksiya jarayonida shunday sport turini tanlab olish lozimki, bu bolaning jismoniy, funksional va ruhiy imkoniyatlariga mos kelsin.

Tayanch so'z va iboralar. *Sport, jismoniy tarbiya, jismoniy mashqlar, qobiliyat, skautlar, jismoniy imkoniyatlar, harakat psixologiyasi, ruhiyat, bola xohishi, temperament.*

Kirish. Bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti ob'ektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish<sup>1</sup> kabi chora tadbirlarni ravshan belgilab berdilar.

L.P.Sergienko sportga yo'naltirish va saralashning quyidagi asosiy turlarini ajaratib ko'rsatadi:

1. Umumiy sportga yo'naltirish va saralash, bunda imkon qadar ko'proq bolalarni sport mashg'ulotlariga jalb etish va sportga iqtidorli bolalar hamda o'smirlarni sport bilan shug'ullanishi uchun bolalar va o'smirlar sport maktablariga (BO'SM) saralab yo'naltirish nazarda tutiladi. Bunday saralash va yo'naltirish – sport zahiralarni uzoq yillar davomida yaxlit tayyorlash tizimining boshlang'ich elementi hisoblanadi.
2. Tur bo'yicha yo'naltirish va saralash, bolalarning aniq sport turi bo'yicha mashg'ulotlarga yaroqliligi aniqlanadi.
3. Maxsus yo'naltirish va saralash, yosh sportchilarni tanlangan sport turining muayyan tor sohasiga yaroqli ekani aniqlanib, u sport ixtisosligi bo'yicha ko'p yillik mashg'ulotlarning dastlabki bosqichida qo'llanadi.
4. Rolli yo'naltirish va saralash, sportga ixtisoslashtirishning boshlang'ich bosqichidan boshlab ko'p yillik sport mashg'ulotlarining barcha bosqichlarida

<sup>1</sup> Sh.M. Mirziyoev "Harakatlar strategiyasi" 4.5 bandi





yosh sportchilarning jamoa tarkibida aniq bir sport turiga xos o'yinda ishtirok eta olishini aniqlash uchun o'tkaziladi.

5. Musobaqalarga yo'naltirish va saralash o'z oldiga teng darajadagi nomzodlar orasidan eng yaxshilarini tanlab olish hamda ularni aniq bir musobaqa dasturida chiqishga

yo'naltirish vazifasini qo'yib, ko'p yillik mashg'ulotlarning yakuniy bosqichida - muayyan sport turi bo'yicha chuqurlashtirilgan mashg'ulotlarda, sport mahoratining yuqori bosqichida o'tkaziladi.

Jismoniy tarbiyani tashkil qilish va uning nazariy ilmiy tizimini yaratgan mashhur rus olimi P.F. Lesgaft (1837-1909), bola rivojlanishida jismoniy mashqlar o'rnini ko'rsatib bunda asosiy omil - harakat psixologiyasi ekanligini, bajarilayotgan jismoniy mashq va harakatlar bolaga zavq berishi haqidagi tasavvrlarni o'stirish kerakligini ta'kidlaydi, bundan ko'rinib turibdiki bolani o'z xohishi istagi va psixologiyasiga to'g'ri ta'sir va faol erkinlik bergan holda nazorat qilish lozim.

Chunki jismoniy mashqlarda bola o'z kuchini, jismoniy imkoniyatlarini angelaydi va m'lum darajada biron sport turi yoki jismoniy harkatga dastlabki tasavvur unda uyg'onib boshlaydi. Hali rivojlanib ulgurmagan bolada sport turia tasavvur qanday paydo bo'lishi mumkin degan savol tug'ulishi tabiiy. Misol tariqasida kundalik hayot faoliyatiga nazar solsak, 4-5 yoshli bolada kuzatiladigan ba'zi harakatchanlik xususiyatlaridan kattalar ko'pincha yuzaki, ammo to'g'ri xulosa qiladilar. Chunki bolaning harakatlarida ba'zi sport turlari uchun juda sosiy omil bo'lgan maxsusu jismoniy sifatlar alomatlarini ko'rish mumkin shuga ko'ra bu bola futbolga, boksga yoki yebgil atletikaga mos deb taxmin qilamz. Albatta taxminiy kuzatuv natijasi ko'pincha to'g'ri, ammo e'tiborsizlik soyasida qolib ketadi. Bu muammo ko'pincha u voyaga yetganida yuzaga keladu. Vaxtida e;tabor qaratilmagan qobiliyat o'rnini birmunch standartlashgan va kundalik talabga javob bera oladigan xususiyatlar egallab oladi bu esa sport turiga yo'naltirishda va keyinchalik faoliyat natijasini olishda o'zinng salbiy summasini beradi.

Shu tariqa yosh bolalarda olib borilishi kerak bo'lgan kuzatuv va eksperiment tajribalarni bosqichma bosqich olib borish yuqoridagi muammoga amaliy yechim bo'ladi. Asosiy aniqlovchi omillarga e'tibor beramiz va bularni masalag asosiy yechim sifatida belgilash mumkin:

1. Bolaning xohishi - eng asosiy va qolganlarini amalda qo'llashga yordam beradigan jarayon bu. Ana shu xohishni inobatga olgan holda sport turlari bilan tanishtirish va o'zi tanlagan sport turiga qo'yish kerak.





2. Temperament – xolerik: bit turdagi sport turlaridan uzoqlashgan ma'qul. (bola ularda osongina chiqib ketishi mumkin), u uchun aniq raqiblar mavjud sport turlarini tanlash lozim va bu holda o'zining muomila va asosiy qobiliyatlarnin ko'rsatish imkoni bo'ladi;

Sangvinik: mardlik, chaqqonlik talab qiladigan sport turlarini tanlash o'rinli, kata do'stlar davrasi va kuch g'ayratini tashqariga chiqarishga yaxshi imkoniyat (raqslar, futbol) bo'ladi;

Melanxolik: bolaning ichki dunyosi va nozik ruhiyatiga e'tibor qaratish asos hisoblanadi. Jamoaviy emas balki yakka va individual nozik va nafisroq sport turlarini tanlash kerak.

Flegmatik: kata sabr-bardoshni alab qiladigan sport turlarini tanlash kerak masalan suzish yoki chang'ida uchish.

3. Dilkashlik darajasi (bola xulqi va fe'l-atvoriga alohida e'tibor berish kerak. Masalan kirishimli ko'pchilik bolalar davrasida bo'lishni xohlaydgan bolalarga jamoamviy sport turlariga yo'nalirish tavsiya etiladi. Ko'proq yolg'izlikni yoqtiradigan bo'lsa yakka sport turlaridan (suzish, velosport, gimnastika, tennis)ni taklif qilish mumkin.

4. Yosh – faqat yosh chegaralaridan tashqari bolalarning unga bog'liq bo'lmagan ba'zi muhm nostandart o'sish prosesiga e'tibor qaratish lozim.

Sport turini tanlashda bolaning jismoniy, funksional va ruhiy holatlariga moslik darajasini hsobga olish maqsadga muvofiq. Unga og'irilik keltirmagan holda o'sish natijasiga erishilsin. Bolalarda sport tayorgarligini oshlash: Salomatlik holati va rivojanishning umumiy darajasi hamda, a'lum biron sport turning fiziologik tavsfiga qarab olinadi. Maksimal holatda 8 dan 10 yoshgacha bolsa bir nechta sport turini almashtirsa me'yoriy ko'rsatkich hisoblanadi. 11-12 yoshda – musobaqadagi ishtirok uchun intilish, bu yosh haqiqiy iqtidorni namoyon qilish uchun ma'qul davr hisoblanadi.

To'g'ri yo'naltirish va qo'llab quvvallash ta'sirida yaqqol ajralib turuvchi bolalarni sport musobaqalarida juda ko'p uchratamiz. Bu holat faqat mehnat emas tug'ma xususiyatga, genetik tuzilishga ham kata bog'liqligi bor. Bunday qobiliyatlarni kuzatishda futbol skautlari seleksionerlardan ibrat olsak arziydi. Masalan: Braziliyaning olis Portu-Allegri shaharchasida 1980 yilda tug'ilgan Ronaldo de Assis Moreyraning birkun kelib Ronaldinho nomi bilan dunyoni lol qoldirishini hatto uning o'zi ham bilmagan bo'lsa kerak. Ronni bu shuhrat va yorqin kelajak uchun onasi va akasidan mamnunligini doim intervyularidan kuzatib boramiz. Asosiy masala to'g'ri tanlov va qo'llash ekanligini bilish lozim 11 yoshida mahalliy Gremio klubi tarbiyalanuvchisi bo'lishidan oldin Ronni mini futbol



jamoasi bilan rasmiy o'yinda ishtirok etadi. Jamoasi 23:0 hisobida g'alabaga erishadi. Diqqatga sazovor jihat o'yindagi barcha gollarni uning o'zi kiritadi va shu o'yin uning hayotida tub burulish yasaydi. Dastlab Gremio so'ng Fransiyaning PSJ klubida porlagan Ronaldinho Barcelonaga transfer qilinadi. Shu tariqa uning yulduzli yo'li boshlanadi. Albatta seleksiya jarayoning ilmiy bilimlarini bilish tajribani to'g'ri amalga oshirish kalitidir.

Saralash R.R.Kuznesov va V.G.Nikitushkin, V.M. Guba ta'kidlashlaricha, sport o'quv mashg'ulotlari jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, bolalarni sportga tayyorlash tizimining muhim vazifalaridan hisoblanadi hamda ularning sport sohasida katta yutuqlarga erishishiga imkon yaratadi<sup>2</sup>.

Sportga yo'naltirish va saralashning yuqorida qayd etilgan asosiy turlarining har biri maqsadli yo'nalish, me'yoriy ko'rsatkich va talablar tizimi, tashkiliy-metodik tadbirlar majmui xususiyatlariga ega.

Shuningdek, saralashni o'tkazish metodlari ham pedagogik (maxsus mashg'ulotlarda erishilgan natijalarni testlashtirish), tibbiy-biologik (morfofunktsional xususiyatlarni nazarda tutgan holda) va psixologik kabi turlarga bo'linadi.

A.V.Gaskov, O.Yu.Kolmakova va V.P.Gubalarning ta'kidlashlaricha, saralash muammosini hal etishning ideal darajadagi varianti bu jismoniy rivojlanish va sport-pedagogik faoliyat bo'yicha 8-12 yoshli yangi boshlovchilardan tortib yuqori malakali sportchilarga qadar tavsifnoma modelini tuzishdan iborat. Ushbu yo'nalishda tobora ko'proq tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, tegishli adabiyotlarda sportchining tayyorgarlik darajalari turlariaro aloqadorlikka oid miqdoriy tavsifnomalarni yoritishga e'tibor qaratilmoqda. Yosh sportchilarning jismoniy layoqatiga oid me'yorlar ishlab chiqilib, bu ularni talab darajasida tayyorlashni boshqarish imkonini bermoqda.

Maktabgacha, kichik maktab yoshidagi bolalar, o'smirlar va boshqa yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligiga oid zarur me'yorlar ishlab chiqilgan bo'lib, sport bilan maxsus shug'allanmaydigan bolalarni testlashtirish natijalarining ko'rsatishicha, ayrim hollarda ularda noyob jismoniy layoqat xususiyatlari mavjudligi kuzatiladi. Masalan, yugurishga oid sport turida natijalarning qanchalik samarali bo'lishi siltanish tezligiga bog'liq bo'ladi. Ma'lum bo'lishicha, 100 tadan bitta bolaning siltanish tezligi 0,09 s.ga tengdir (mashhur sprinter Figerolning siltanish tezligi - 0,08 s.ga teng). Kuchni jismoniy

---

<sup>2</sup>Olimpiya sportida zamonaviy ilm-fan" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman t o' p l a m i bolalarni sportga yo'naltirish va saralash muammolari Yusupov Z.Z., T-2020



sifatlari ko'proq namoyon bo'luvchi sport turlari imkoniyatlarini belgilashda muhim o'rin tutadigan mushakning solishtirma quvvati ko'rsatkichlari (mushaklar tutashgan joy birligiga tegishli barqaror kuch-quvvat) bo'yicha ham ayrim hollarda sport bilan maxsus shug'ullanmaydigan bolalar mushak tizimining solishtirma quvvati ko'rsatkichlari maxsus shug'ulanadigan sportchi tengdoshlariniki bilan deyarli bir xil ekani kuzatiladi. Bu xil belgilarning mavjudligi qonuniy hodisa hisoblanib, populyatsiyada belgilarning taqsimlanish xarakteriga mos keladi: egri chiziq bo'yicha me'riy taqsimlanishda ozchilikni qamrab oluvchi so'l qismga nisbatan o'ng qismda belgilar yorqinroq kattalikka ega bo'ladi. D.D.Safarova fikriga ko'ra, bunday (yuqoridagi va boshqa shu kabi) holatlar haqiqatan mavjud bo'lib, populyatsiyada ularni tez-tez uchratish mumkinligini ham e'tiborga olish joiz.

Ta'kidlash o'rinliki yuqoridagi muammolarning mos yechimi sport nufuzi natija ko'lami va eng muhimi yosh avlod sog'ligini kafolatlaydi. Xulosa qilib aytganda bolani jismoniy, ruhiy imkoniyati va qobiliyatiga mos sport turi yoki mashg'ulotni tanlash uning kelajakdagi mehnat va sport faoliyatidagi yutuqlar o'sishini ta'minlaydi.

Yuqoridagilarga xulosa qilib ta'kidlash joizki, sport bo'yicha saralashda yuqori samaradorlikka erishish uchun yosh sportchining tanlangan sport turiga mosligini nazarda tutib, uning morfofunktsional, tibbiy- biomexanik va psixologik xususiyatlarini to'liq ifodalovchi serqirra, atroflicha mukammal parametrlarini o'rganish va tegishli tavsifnomani tuzish lozim.

Yosh sportchining tana uzunligiga oid ma'lumotlar, aksariyat sport turlarida, masalan, sport o'yini turlari (basketbol, voleybol, gandbol va boshqalar) da ayniqsa muhim sanaladi. Chunki bunday sport turida bo'yning baland bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, sport gimnastikasida ham bu xil ma'lumotlar zarur bo'lib, bunda o'rta yoki past bo'yliylar ko'proq samara beradi. Individual metod asosida bolalar tana uzunligini o'rganish har qanday bolaning yoshiga qarab genetik dastur bo'yicha o'zgarib borishini ko'rsatadi. Bu esa tajriba-sinov o'tkazilgan yilda regressiv tahlil asosida tana uzunligi haqidagi ma'lumotni atroflicha aniqlash va muhim jihatlarni qayd etishni taqozo etadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Yusupov Z.Z, Yusupov Z.Sh "Dastlabki tayyorlov bosqichida gandbolchilarning kuch sifatini rivojlantirish usullari" Uslubiy qo'llanma 2016 yil





2. Yusupov Z.Z, Yusupov Z.Sh “Mashg‘ulot jarayonida yosh gandbolchilarning yurak qon tomir ko‘rsatkichlarining jismoniy tasnifi” Jismoniy tarbiya va sport” ilmiy ommabop jurnal. 2015.
3. Yusupov Z.Z, Yusupov Z.Sh “Mashq qilish jarayonida yosh gandbolchilarning chidamkorligini aniqlashning pedagogik usullari” Konstitutsiya Respubliki Uzbekistan-obrazovanie i vospitanie molodeji. Sbornik statey III traditsionnoy nauchno-prakti-cheskoy konferensii. Filial MGU imeni M.V. Lomonosova, 4-5 dekabrya Tashkent, 2014.
4. Azizova R.I. Gandbolchining texnik tayyorgarligi. N., 2006
5. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. T.,2005.
6. Izaak V.I. Nabiev T.I. Gandbol v vuze T., 2005.
7. Ignateva V.Ya Gandbol «Fizkultura i sport» 1983
8. Klusov N.P. Minigandbol M., «Fizkultura i sport» 1979

